



“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARIDA MA’NOSI IZOHLANGAN
NUMERATIV SO‘ZLAR

Kimsanboyeva B.N.

FarDU erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tilshunoslikda kvantitativ, ya’ni miqdor ifodalovchi birliklar, ularning tasnifi, hisob so‘zlarning tilshunoslikda o‘rganilishi, olimlarning nazariyalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: kvantitativlik, miqdor, numerativlar, og‘irlik, og‘irlik o‘lchovi, o‘lchov toshi, uzunlik o‘lchovi, vaqt o‘lchovi.

Abstract. Quantitative units in linguistics, i.e. units representing quantity, their classification, the study of counting words in linguistics, theories of scientists have been researched.

Key words: quantity, quantity, numeratives, weight, weight measure, measuring stone, length measure, time measure.

Аннотация. Исследованы количественные единицы в языкознании, т.е. единицы, обозначающие количество, их классификация, изучение счетных слов в языкознании, теории ученых.

Ключевые слова: количество, количество, числительные, вес, мера веса, мерный камень, мера длины, мера времени.

S.Nizomiddinova numerativ so‘zlarning miqdor anglatishiga ko‘ra konkret miqdor ifodalovchi numerativlar va konkret miqdorni bildirmaydigan numerativlar deb ikkiga ajratgan. A.Muhammadjonov nisbiy o‘lchov birliklarini aniq birlik deb bo‘lmasligini aytadi. Professor A.N.Kononov esa ayrim numerativlar aniq o‘lchov birligini (gramm, kilogramm, metr, kilometr, litr, gektar) anglatishini, ayrimlari esa noaniq miqdorni (qop, g‘aram, to‘da, uyum) ifodalashini ta’kidlagan. P.Hamdammov numerativlarni qo‘llanishiga ko‘ra ikkiga bo‘ladi: asliy numerativlar va nisbiy numerativlar. Asliy numerativlar orqali so‘zlarning aniq va umumiy miqdori anglashiladi. Nisbiy numerativlar esa faqat noaniq miqdorni ifodalaydi. Numerativ so‘zlarning tilshunoslikdagi o‘rni haqida turkiy xalqlarning dastlabki yozma manbalarida ham ma’lumotlar berilgan.

M.Koshg‘ariy “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida XI asrda qo‘llangan o‘lchov birliklari, ularning kelib chiqishi, qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar bergan. Asarda o‘lchov so‘zining o‘zi ham alohida izohlanishi, o‘sha davr kishilar hayotida miqdor ifodalovchi birliklar, xususan o‘lchov birliklari ham muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rish mumkin:

سغۇ *sag‘u* – o‘lchov (DLT.III.245)

Asarda ma’nosi izohlangan o‘lchov birliklariga oid so‘zlarni quyidagi guruhlariga ajratsih mumkin:



1. Uzunlik ma'nosini bildiradigan miqdor ifodalovchi birliklar.
2. Og'irlik ma'nosini bildiradigan miqdor ifodalovchi birliklar.
3. Vaqt ma'nosini bildiradigan miqdor ifodalovchi birliklar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi odim, qadam so'zlarining o'rnida manig' so'zi qo'llangan:

منكغ *manig'* – qadam bosish, odim. انكن منكغى كور *anin manig'i kör.* – uning oyoq bosishini ko'r.

Qo'l, barmoq, panja bilan bog'liq bo'lgan kichik uzunlik o'lchovlari nomlari ekin//ell//enk//en so'zi bilan barmoq kengligiga teng o'lchov birligi sifatida qo'llangan. Hozirda tilimizda qo'llanuvchi en so'zining kelib chiqishi xuddi shu so'z bilan bog'lanadi:

اكن *en* bir yarim qarich, bo'yi to'rt gazlik bo'z, bu bilan suvor qabilasi savdo-sotiq qiladi.

قلج *qulach* – quloch. aslini qo'l och.(I.340) Quloch ikki qo'lni keng yoygandagi uzunlik o'lchov birligi. Bu o'lchov birligi odatda mo'ynaning uzunligini o'lchash uchun ishlatilgan. Shu bilan birga, to'qilgan matolar ham shu o'lchov birligi bilan o'lchangan. 1800 yillarda Buxorada gazmolni shu birlik bilan o'lchaganlar. 1 quloch 142,24 sm ga teng bo'lgan. Farg'ona vodiysida esa 166-170 sm yoki 8 qarichga teng bo'lgan.

قرش *qarish* – qarich (I.356) - bosh barmoq bilan chimchaloq barmoq orasidagi uzunlik. Boshmoldoqdan sinchaloq orasidagi panjalar yozilgandagi masofani bildiradi. Bu o'lchov birligi qurilish, uy-ro'zg'or ishlarida ishlatilgan.

بيريغج *bir jig'ach* – bir farsax (o'n ikki ming qadam uzunligidagi joy). *بيريجج jer* – bir farsax uzunligidagi yer (DLT.III.15). Tosh, chaqirim kabi uzunlik o'lchov nomi sifatida qo'llangan bo'lib, bugungi kunda taxminan 6-8 km.ga teng bo'lgan miqdorni anglatadi.

“Devonu lug'oti-t-turk” asarida bu so'zning bir necha ma'nolari berilgan, bu haqida asar ustida uzoq izlanishlar olib borgan tilshunos olim S.Mutallibov shunday yozadi: M.Koshg'ariy izohiga ko'ra yog'och so'zi XI asr qabilalari tilida bir oz farqli qo'llangan. Bu so'z u davrda daraxt, uzunlik o'lchovi, o'tin ma'nolarini anglatgan. Hozirgi o'zbek tilida bu so'z asosan, yog'och tarzida, ba'zi birikmalarda og'och tarzida (Beshog'och) qo'llanadi. Lekin hozirgi tilda bu so'zning birinchi ma'nosi o'rnida, asosan, daraxt so'zi qo'llanadi. Shu bilan birga yog'och so'zining ma'nosi juda kengaygan. Katta-kichik ustun, xoda, novda ma'nosida ham qo'llana beradi. Ammo Navoiy asarlarida to'la shu ma'nolarda qo'llangan:

1. Uzunlik o'lchovi ma'nosida:
Tor ko'rindi alar qarolari ham,
Qolmadi bir yag'och arolari ham.



2. Yag‘ochi ustida ko‘p sabzalar fosh,

Bale ko‘k sabzasidan o‘ktarib bosh

(U daraxt serbarg edi-yu, osmondan baland edi).

Uzunlik o‘lchov nomi sifatida yana turum so‘zi keltiriladi:

بیر ار ترمی سوف *turum* – bo‘y barabar uzunlik. bir er turumi suw – bir odam

bo‘yi barabar chuqur suv.

Bundan tashqari muallif turum so‘zi tuya bolasiga nisbatan qo‘llanilishini ham aytib o‘tgan.

بیر اقم بیر *oqtam* – bir oqtam jer - bir o‘q otarli masofadagi yer (DLT.I.132)

Quyidagi uzunlik o‘lchov birliklari ham ikki xil, lekin bir-biriga yaqin ma’noda qo‘llanilgan:

قاری *qari* – qo‘l o‘lchovi, qo‘l uzunligidagi o‘lchov

قاری *qari* – bo‘z o‘lchaydigan o‘lchov, gaz. Bu so‘zda arabchaga muvofiqlik bor.

Chunki qo‘l o‘lchovi bilan kiyim o‘lchovi har ikki tilda birgina so‘z bilan ifoda etilgan, - deydi muallif.

Demak, XI asrda bu so‘z ikki xil bir-biriga yaqin ma’noda qo‘llangan, lekin Navoiy asarlarida bu so‘z birgina ma’noda uchraydi:

Yetib ado sipohi ming qaridin....

Toshig‘a ming *qari* yerdan nishona

Koshg‘ariy gaz atamasi o‘rnida *chig‘* so‘zi ishlatilishini ta’kidlab shunday yozadi: “chig‘ – turklarning gaz o‘lchovi nomi. U gazning uchdan ikki qismiga tengdir. Ko‘chmanchilar u bilan bo‘z o‘lchaydilar”. *Qamdu, tenuch, turk* atamalari ham o‘lchov birligini bildiruvchi so‘zlar sifatida keltiriladi. Bulardan tashqari, muallif asarda yuza, hajm ma’nolarini ifodalovchi quyidagi so‘zlarni ham ma’nolarini keltirib o‘tadi:

اذت *azut* – kaft; bir kaftga sig‘arlik, بیر اذت نائک bir azut neng - bir kaft narsa

Shu bilan birga bu so‘zning sinonimi sifatida aja so‘zi ham keltirilgan. Bu so‘z kaft ma’nosida qo‘llangan.

ایا *aja* – kaft; qo‘l kafti(DLT.I.136)

Asarda hajm ma’nosini ifodalovchi so‘zlarni ham ma’nolari izohlangan:

بسبل *basbal* – bir taqim ip.

بیجم *bichim* – tilim, kesim. بیر بیجم قاغون un - bir tilim qovun.

برت *bart* – may va shu kabi suyuq narsalrni o‘lchash uchun ishlatiladigan o‘lchov birligi.(DLT.I.445)

Bu so‘zlardan ayrimlari hozir ham qo‘llaniladi.

“Devonu lug‘oti-t-turk” asarida og‘irlik ma’nosini ifodalovchi *kavchi* so‘zining ma’nosi quyidagicha izohlangan:



كنجى *kewchi* – Qashqardan uyg'urlargacha bo'lgan joylarda qo'llanadigan o'lchov, u o'n ritldan iborat (1 ritl 306 gr teng) (DLT.I.395).

Asarda hozirgi o'zbek adabiy tilida ham og'irlik o'lchov ma'nosini ifodalovchi *botmon* so'zining ham izohini ko'rishimiz mumkin:

بتمان *batman* – botmon. بىر بتمان ات bir batman et - bir botmon et, go'sht. (DLT.I.415) Yoki izohi keltirilgan quyidagi o'lchov birliklari xuddi shu shaklda hozirgi adabiy tilimizda ham faol qo'llanadi:

ايم *öpüm* – yutum, qutum; بىر ايم مون bir *öpüm mün* - bir qutum sho'rva.

تلنجو *tunchu* – bir yutum ovqat, luqma (DLT.I.395)

قلبز *qalbuz* – bir yutum, bir luqma.(DLT.I.427)

ارم *orum* – o'rim, tutam, siqim; بىر ارم ات bir orum ot - bir o'rim o't, bir tutam o't.

تلم *tilim* – bo'lak. بىر تلم ات bir tilim et – bir tilim, bir bo'lak et, go'sht.

تلکا *tilkä* – tilim, bo'lak.(DLT.I.405)

قچم *qucham* – quchoq. (DLT.I.378)

قچق *quchaq* – quchoq (DLT.I.363)

yoki quyidagi o'lchov birligi umuman iste'moldan chiqqan:

تکیم *tikim* – bir bo'lak; بىر تکیم ترماک bir tikim turmak – bir bo'lak qovurdoq(DLT.I.377).

Demak, bir necha asrlar avval ham bu o'lchov birliklarining zamirida og'irlik, og'irlik o'lchovi, o'lchov toshi kabi miqdor ma'nolari jamlangan. Asarda og'irlik o'lchov asbobi nominin izohlanishi, muallif haqiqatda o'sha davr kishilari hayot tarzini diqqat bilan kuzatgan, degan fikrlarni tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. – М.-Л., 1956, стр.375.
2. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк).Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. – Т.3. – Тошкент, 1963. – 376 б.
3. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк).Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. – Т.1. – Тошкент, 1963. – 376 б.
4. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк).Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. – Т.3. – Тошкент, 1963. –242б.
5. Муҳаммаджонов А.Р.Ботмон нима-ю,мисқол нима? //Фан ва турмуш.1960, №8. – 27 б.
6. Низомиддинова С. Ҳозирги замон ўзбек тилида сон. – Тошкент:Фан,1963. – 34-бет.
7. Ҳамдамов П. Нумеративларнинг қўлланишига кўра турлари// Ўзбек тили ва адабиёти.1971, №2. – 52-54 б.



8. Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1), 125-130.17.
9. Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ. Theoretical & Applied Science, (4), 252-254.
10. Kadamzhanovna, A.N. (2023). ORIENTALISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULAM (BY THE MATERIAL OF THE STORY" MISCLE"). Open Access Repository 4 (03), 63-67.
11. Z Madraximova, Z & Ablaeva, N. (2022). CHARACTERISTICS OF LERMONTOV'S WORKS" HERO OF OUR TIME". Science and Innovation 1 (8), 1843-1845, 2022.
12. Madraximova, Z & Ablaeva, N. (2022) ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛЕРМОНТОВА" ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ". Science and innovation 1 (B8), 1843-1845 2022.
13. XOLMANOVA, Z. Ana Sayfa| Hakımızda| Yayın Kurulu| Yayın İlkeleri| Arşiv| Son Sayı| İletişim| Çıkış Giriş.
14. Аблаева, Н.К. (2022). Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц. Та'lim fidoyilari 6 (7), 687-691.
15. Xolmanova, Z. Eski o 'zbek tiliga xos ayrim leksemalar semantikasi va lingvokulturologik xususiyatlari. O 'ZBEKIST, 38.
16. SEMPO, Y. E., & KİTABI, B. (2017). ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI. 7. Michael McCarthy and Felicity O'Dell." English Idioms in Use"—Cambridge university press.—L.
17. Xolmanova, Z. Babür'ün Özbek Dilbilimini Geliştirmedeki Büyük Hizmetleri.
18. Сапарбаева Саодатжон Бахтияровна, А. Н. К. . (2024). ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ"- ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ РОМАН РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. Miasto Przyszłości, 46, 693–697.